

3	Yakuniy nazorat Jami	Yakuniy nazorat	50 100
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik.-T.:Turon zamin ziyo, 2016.</p> <p>2. Назаров И.К. География фанининг асосий муаммолари. – Т.: “Мухаррир” 2013.-Б. 212.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.</p> <p>4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.</p> <p>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. www.lex.uz</p> <p>6. Zokirov Sh. S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. –T.: Dizayn-press, 2013.</p> <p>7. Зокиров Ш.С. Антропоген ва амалий ландшафтшunoslik. –Т.: Университет. 1998.</p> <p>8. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. –М.: 1991.</p> <p>9. Звонкова Т.В. Географическое прогнозирование. М.: “Высшая школа”. 1987.</p> <p>10. Рафиқов А.А., Шагіров Ш.М. Геоэкология. Т.: “Adib”, 2014.</p> <p>11. География ва ландшафт экологиси. Илмий маколалар тўплами. Самарқанд. СамДУ. 2012</p> <p>Axborot manbalari</p> <p>12. www.undp.uz 13. www.ziyo.net. 14. www.uzgeo.uz</p>		
7.	<p>Fan dasturi Jizzax davlat pedagogika instituti Kengashning 2021 yil 24.08 dagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>		
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sullar: Adilova Ozoda Amonovana – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida o'qituvchisi, g.f.PhD.</p>		
9.	<p>Taqrizchilar: Nazarov M.K - QarDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasida mudiri o'qituvchisi, g.f.f.d. PhD. Hakimov Q.M. JizzaxDPI Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida prof. v/b/, g.f.n</p>		

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



“Tasdiqlayman”
Jizzax davlat pedagogika instituti
rektori prof. Sh. Sharipov
2021 yil “24” 08

GEOGRAFIYANING DOLZARB MUAMMOLARI

FANING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 - Ta'lim
Magistratura mutaxassisligi: 70111001-Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (Geografiya)

JIZZAX – 2021

000000

Fan/modul kodi 351GDM1006	O'quv yili 2021-2022	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 6
Fan/modul turi majburiy	Ta'lim turi O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Жами юклама (soat)
1.	90	90	180
2.	<p>Geografiyaning dolzarb muammolari</p> <p>I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarda zamonaviy tabiiy geografiyaning juda ko'p va xilma-xil masalalari orasidan muhim va dolzarblarini ajratib olib, ularni hal qilishning ilmiy-nazariy va amaliy tomonlari haqidagi bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Fanning vazifasi - magistrantlarda tabiiy geografiyaning ham nazariy ham amaliy muammolari, geografiyaning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirish, inson va tabiat o'zaro aloqadorligi muammolarini aniqlash, ushbu fan oldida turgan vazifalar, dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llariga doir bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat. - Fanning vazifasi – talabalarda geografiyaning fanlar tizimidagi o'rnini, tadqiqot usullarini va tamoyillarini, geografiya va falsafaning o'zaro aloqadorligini, tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari va ularning ahamiyatiga oid tegishli geografik bilimlarni berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish; <p>tabiiy geografiyaning asosiy negizi bo'lgan landshaftlarni tasniflash, geografiya va ekologik muammolar va ularning yechimi, iqlim o'zgarishi va uning oqibatida kelib chiqayotgan tabiiy jarayonlar haqida fikrlash qobiliyatini shakllantirish, cho'llanish muammolari va uning kelib chiqish sabablari, antropogen landshaftshunoslik va amaliyot, landshaftlar resursunosligi, geografik bashorat va amaliyot haqida ilmiy va mustaqil fikr yuritishni tarkib toptirish yo'llari haqida bilimlar berish, talabalarni pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Kirish. Tabiiy geografik g'oya va tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishi. O'quv kursi ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi. Tabiiy geografik izlanishlarning tavsifi. Tabiiy geografiyadagi asosiy g'oya va tushunchalarning shakllanishi va rivojlanish tarixidan qadimgi (antik) davrlardagi yunon olimlari Gekatiy, Gerodot, Aristotel, Eratosfer,</p>		

Gipparx, Posidoniy, Strabon, Ptolemeylarning geografik tasavvurlari. O'rtasi asrlardagi sharq uyg'onish davri geografiyasi. O'rtasi Osiyolik alomalar Muhammad Xarazmiy, Jayxoni, Balxiy, Abu Abdulla Xorazmiy, Beruniy Mahmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Hofizi Abri, Riyosiddin Naqqosh, Zahiriddin Bobur va boshqalarning geografik merosi. XIX asr oxiri XX asrda tabiiy geografiya.

2-mavzu. Tabiiy geografiyaning fanlar tizimidagi o'rnini va qismlari. Geografik fanlar tizimi. Geotizimlarning ko'lamlari, katta-kichikligi va tabiiy geografiyaning qimslarga bo'linishi Umumiy tabiiy geografiya, regional tabiiy geografiya, landshaftshunoslik.

3-mavzu. Umumiy tabiiy geografiyaga oid muammolar. Geografik qobiqlarning chegaralari va tarkibiy tuzilishi. Uning geosferalari va komplekslari. Geografik qobiqlarning o'ziga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlari. Uning tarixan shakllangan, uzluksiz rivojlanib turadigan, o'ziga xos va murakkab moddiy tizim ekanligi. Geografik qobiqlarning tanishi olam bilan aloqadorligi. Unda organik hayotning mavjudligi. Geografik qobiqlarning mavjudligida tirik moddaning ahamiyati.

4-mavzu. Regional tabiiy geografiyaga taaluqli muammolar. Geografik qobiqlardagi hududiy farqlarni aniqlash va muayyan hududlarning tabiiy sharoitini tadbir qilish katta hududlar (regional) tabiiy geografiyasining eng muhim vazifalaridan biri ekanligi. Regional tabiiy geografiyaga taaluqli muammolar. Tabiiy geografik rayonlashtirish regional tabiiy geografiyaning metodologik masalalaridan biri ekanligi.

5-mavzu. Xususiy rayonlashtirish. Tabiiy geografik rayonlashtirishning xillari, tamoyillari va metodlari. Genetik birliklik, komplekslilik, hududiy umumiylik va nisbatan bir xillik tamoyillari. Xususiy rayonlashtirish ma'lumotlarini tahlil qilish asosida tabiiy geografik rayonlashtirish metodi. Tabiiy geografik rayonlashtirishning bosh omil metodi. Landshaft tipologik kartani tahlil qilish asosida tabiiy geografik rayonlashtirish metodi.

6-mavzu. O'rtasi Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish tajribalari. Tabiiy geografik rayonlashtirishning taksonomik birliklar tizimi. O'rtasi Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish tajribalaridan R.I.Abolin, L.S.Berg, E.P.Korovin, A.Rozanov, V.M.Chetirkin, E.M.Murzaev, L.N.Babushkin va N.A.Kogaylarning tabiiy geografik rayonlashtirish ishlarida ko'tarilgan muammoli masalalar. Qisloq xo'jaligi va boshqa soha maqsadlarida bajariladigan tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari.

7-mavzu. Kichik hududlar tabiiy geografiyasiga oid muammolar. Landshaft tushunchasining shakllanishi va munozarali tomonlari. Landshaftning tarkibiy tuzilishi va morfologiyasi. Landshaft hosil qiluvchi omillar muammosi. Landshaftlarni tasniflash masalalari.

8-mavzu. Inson - tabiat munosabatlari va uning oqibatlari. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning tabiiy geografik jihatlari. Tabiatdan oqilona foydalanishning global, regional va mahalliy

ko'lamdagi muammolari.

9-mavzu. Antropogen landshaftshunoslik va amaliyot. Tabiat va inson munosabatlarining tarixiyligi. Antropogen landshaftlar va ularning tabaqalanishi. Madaniy landshaftlar yaratishning nazariy asoslari va asosiy tamoyillari. Madaniy landshaftlarning kelajagi haqida

10-mavzu. CHo'llanish muammosi. CHo'llanish nima? CHo'llanish jarayonining rivojlanishi, tabiiy va antropogen omillar. Hududlar bo'yicha cho'llanish turlari. Antropogen cho'llanish. CHo'llanish jarayoniga qarshi kurash.

11-mavzu. Sho'rlanish muammosi. Tuproqning sho'rlanishi birlamchi (dastlabki) va qayta sho'rlanish. SHO'rlangan tuproqlarning global tarqalishi. SHO'rlanishga qarshi kurash.

12-mavzu. Geografiya va ekologiya: muammolar va amaliyot. Geografiya va ekologiya fanlari o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik va farqlanishlar. Geologik (geografik ekologiya) g'oyalarning shakllanishi. Geologiya - integral umumigeografik fan. Geologik tadqiqotlar.

13-mavzu. Iqlimning o'zgarishi va uning tabiiy geografik oqibatlarini o'rganish muammolari. Iqlim va iqlimiy resurslar. Iqlim o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar. Iqlimning global miqyosda o'zgarishi, uning oqibatlari. Atmosfera havosini muhofaza qilish masalalari.

14-mavzu. O'zbekistonda iqlim o'zgarishi va geografik oqibatlarini o'rganish muammolari. Iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligiga ta'siri muammosi. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash chora-tadbirlar hususida.

15-mavzu. Tabiiy geografik monitoring. Monitoring, uning turlari (biosfera, Yer, suv, havo, geologik monitoring va x.k.), monitoring klassifikatsiyasi (global, regional, lokal). Tabiiy geografik monitoring o'tkazishning ahamiyati va muammolari.

16-mavzu. Tabiiy geografik baholash masalalari. Baholash va uning turlari. Tabiiy sharoitni qishloq xo'jaligi, rekreatsiya, shaharsozlik maqsadlarida baholash. Tabiiy geografik baholashning ahamiyati.

17-mavzu. Tabiiy geografik prognozlash masalalari. Prognoz va prognozlashtirish. Prognozlash metodlari va tamoyillari. Tabiiy geografik, iqtisodiy geografik va kompleks geografik prognozlar. Dunyoviy, regional va mahalliy prognozlar. Tabiiy geografik prognozlashtirish masalalari.

18-mavzu. Sayyoramizni va uning ayrim qismlari resurs imkoniyatlarining o'zgarishi, tabiiy va iqtisodiy fanlar tizimida alohida davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlari va ularga iqtisodiy baho berish.

19-mavzu. Hududiy-iqtisodiy komplekslardan ratsional foydalanish muammolari. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik bashoratlar

20-mavzu. Fanning nazariy-metodologik asoslari, urbanizatsiyaning zamonaviy shakllari, jarayonning ijobiy va salbiy oqibatlari va uni baholash

21-mavzu. Ta'lim tizimiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar. Ta'lim tizimiga oid qonun, qaror, farmon, farmoyish va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

22-mavzu. Ta'lim tizimida tabiiy geografik fanlarning o'qitilish muammolari.

Ta'lim turlari. Ta'lim tizimi va undagi muammolar. O'rta va OTMda geografiya fanining o'qitilish muammolari. Mavjud muammolarni bartaraf qilish chora-tadbirlari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Kirish. Tabiiy geografik g'oya va tushunchalarning shakllanishi va rivojlanishi. O'quv kursi ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi. Tabiiy geografik izlanishlarning tavsifi. Tabiiy geografiyadagi asosiy g'oya va tushunchalarning shakllanishi va rivojlanish tarixidan qadimgi (antik) davrlardagi yunon olimlari Gekatiy, Gerodot, Aristotel, Eratosfen, Gippax, Posidomiy, Strabon, Ptolemeylarning geografik tasavvurlari. O'rta asrlardagi sharq uyg'onish davri geografiyasi. O'rta Osiyolik alomalar Muhammad Xarazmiy, Jayxoni, Balxiy, Abu Abdulla Xorazmiy, Beruniy Mahmud Qo'shg'ariy, Zamaxshariy, Hofizi Abri, Riyosiddin Naqqosh, Zahiriddin Bobur va boshqalarning geografik merosi. XIX asr oxiri XX asrda tabiiy geografiya. Ma'lumotlar to'plash, o'rganish va tahlil qilish.

2-mavzu. Tabiiy geografyaning fanlar tizimidagi o'rni va qismlari. Geografik fanlar tizimi va geotizimlarning ko'lamlarini va tabiiy geografyaning qismlarga bo'linishi haqida bilish va ularni amaliy baholash.

3-mavzu. Umumiy tabiiy geografiyaga oid muammolar. Geografik qobiqning chegaralari, tarkibi, tuzilishi, geosferalari, komplekslari. Geografik qobiqning o'ziga xos xususiyatlari, tarixi rivojlanishi o'ziga xos va murakkab moddiy tizim ekanligini bilish. Geografik qobiqda organik hayotning mavjudligi tirik moddaning ahamiyatini tahlil qilish va o'rganish.

4-mavzu. Regional tabiiy geografiyaga taaluqli muammolar. Geografik qobiqdagi hududiy farqlarni aniqlash va muayyan hududlarning tabiiy sharoitini tadbir qilish katta hududlar (regional) tabiiy geografiyasining eng muhim vazifalaridan biri ekanligini bilish. Regional tabiiy geografiyaga taaluqli muammolar va ularning yechimini amaliy masalalarda qo'llash va baholash. Tabiiy geografik rayonlashtirish regional tabiiy geografyaning metodologik masalalarini taqqoslash.

5-mavzu. Xususiy rayonlashtirish. Tabiiy geografik rayonlashtirishning xillari, tamoyillari va metodlarini o'rganish. Genetik birlilik, komplekslilik, hududiy umumiylik va nisbatan bir xillik tamoyillarini taqqoslash. Xususiy rayonlashtirish ma'lumotlarini tahlil qilish asosida tabiiy geografik rayonlashtirish metodi. Landshaft tipologik kartani tahlil qilish asosida tabiiy geografik rayonlashtirish metodlarini amaliy qo'llashni o'rganish.

6-mavzu. O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish tajribalari. Tabiiy geografik rayonlashtirishning taksonomik birliklar tizimi. O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirishlar tajribalaridan R.I.Abolin, L.S.Berg, E.P.Korovin, A.Rozanov, V.M.Chetirkin, E.M.Murzaev, L.N.Babushkin va N.A.Kogaylarning tabiiy geografik rayonlashtirish ishlarida ko'tarilgan muammoli masalalarni o'rganish.

Qishloq xo'jaligi va boshqa soha maqsadlarida bajariladigan tabiiy geografik rayonlashtirish masalalarini tahlil etish va taqqoslash.

7-mavzu. Kichik hududlar tabiiy geografiyasiga oid muammolar. Landshaft tushunchasining shakllanishi va munozarali tomonlarini tahlil etish. Landshaftning tarkibiy tuzilishi va morfologiyasi, landshaft hosil qiluvchi omillar muammosi, va landshaftlarni tasniflash masalalari amaliy masalalarda qo'llash va baholash.

8-mavzu. Inson - tabiat munosabatlari va uning oqibatlari. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning tabiiy geografik jihlatlarini bilish. Tabiatdan oqilona foydalanishning global, regional va mahalliy ko'lamdagi muammolarini baholash va amaliy masalalarda qo'llash.

9-mavzu. Antropogen landshaftshunoslik va amaliyot. Tabiat va inson munosabatlarining tarixiyi. Antropogen landshaftlar va ularning tabaqalanishi. Madaniy landshaftlar yaratishning nazariy asoslari va asosiy tamoyillari. Madaniy landshaftlarning kelajagi haqida

10-mavzu. CHO'rlanish muammosi. CHO'rlanish jarayonining rivojlanishi, tabiiy va antropogen omillarning ta'sirini baholay olish. Hududlar bo'yicha cho'rlanish turlarini o'rganish va sabablarini baholash. Antropogen cho'rlanishni baholash va prognozlash. CHO'rlanish jarayoniga qarshi kurash chora tadbirlarini tahlil etish va hulosalashni o'rganish.

11-mavzu. Sho'rlanish muammosi. Tuproqning sho'rlanishi birlamchi (dastlabki) va qayta sho'rlanish. SHO'rlangan tuproqlarning global tarqalishi muammosini tahlil etish va sabablarini baholash. SHO'rlanishga qarshi kurashish choralariga baho berish va tahlil etish.

12-mavzu. Geografiya va ekologiya: muammolar va amaliyot. Geografiya va ekologiya fanlari o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik va farqlanishlarni tahlil etish. Geoeologik (geografik ekologiya) g'oyalarning shakllanishi. Geoeologiya - integral umumigeografik fan. Geoeologik tadqiqotlar.

13-mavzu. Iqlimning o'zgarishi va uning tabiiy geografik oqibatlarini o'rganish muammolari. Iqlim va iqlimiy resurslar. Iqlim o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar. Iqlimning global miqyosda o'zgarishi, uning oqibatlari. Atmosfera havosini muhofaza qilish masalalari.

14-mavzu. O'zbekistonda iqlim o'zgarishi va geografik oqibatlarini o'rganish muammolari. Iqlim o'zgarishining qishloq xo'jaligiga ta'siri muammosi. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash chora-tadbirlarini baholash va amaliy masalalarda qo'llash.

15-mavzu. Tabiiy geografik monitoring. Monitoring, uning turlari (biosfera, Yer, suv, havo, geoeologik monitoring va x.k), monitoring klassifikatsiyasi (global, regional, lokal). Tabiiy geografik monitoring o'tkazishning amaliy ahamiyati va muammolarini baholash va amaliy masalalarda qo'llash.

16-mavzu. Tabiiy geografik baholash masalalari. Baholash va uning turlari. Tabiiy sharoitni qishloq xo'jaligi, rekreatsiya, shaharsozlik maqsadlarida baholash. Tabiiy geografik baholashning ahamiyati.

17-mavzu. Tabiiy geografik prognozlash masalalari. Prognoz va

prognozlash. Prognozlash metodlari va tamoyillari. Tabiiy geografik, iqtisodiy geografik va kompleks geografik prognozlar. Dunyoviy, regional va mahalliy prognozlar. Tabiiy geografik prognozlash masalalarini baholash.

18-mavzu. Sayvoramizni va uning ayrim qismlari resurs imkoniyatlarining o'zgarishi, tabiiy va iqtisodiy fanlar tizimida alohida davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlari va ularga iqtisodiy baho berish.

19-mavzu. Hududiy-iqtisodiy komplekslardan ratsional foydalanish muammolari. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik bashoratlariga baho berish amaliy masalalarda qo'lalsh

20-mavzu. Fanning nazariy-metodologik asoslari, urbanizatsiyaning zamonaviy shakllari, jarayonning ijobiy va salbiy oqibatlari va uni baholash

21-mavzu. Ta'lim tizimiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar. Ta'lim tizimiga oid qonun, qaror, farmon, farmoyish va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

22-mavzu. Ta'lim tizimida tabiiy geografik fanlarning o'qitilish muammolari. Ta'lim turlari. Ta'lim tizimi va undagi muammolar. O'rta va OTMda geografiya fanining o'qitilish muammolarini tahlil etish, mavjud muammolarni bartaraf qilish chora-tadbirlari to'g'risida masalarni baholash.

23-mavzu. Tabiiy geografianing dolzarb muammolariga doir maqolalar. Maqolalarni top'lash ularni o'rganish va tahlil qilish. Mavzuga doir maqolalar yozish.

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriya bir akademik, guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim mavzulari mazmuni va ularga ajratilgan soatlar

Geografiyaning dolzarb muammolari kursi bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

Geografiyaning dolzarb muammolari fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tashkil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Malakaviy amaliyotni o'tash chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lami ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabalar mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik.
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
 - maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
 - talabning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini o'rganish;
 - faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilayotgan mavzulari:

1. Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish
 2. Tabiiy geografiyadagi asosiy g'oya va tushunchalarning shakllanishi va rivojlanish tarixi
 3. XX asrning ikkinchi yarmida kompleks tabiiy geografiya va landshaftshunoslik g'oyalarining rivojlanishi
 4. Geoekologik (geotizimli) monitoring
 5. Tabiiy geografik jarayonlar va ularning turlari
 6. Tabiiy geografik rayonlashtirishning xillari
 7. Umumiy tabiiy geografiyaga oid muammolar
 8. Tabiiy geografiyada geoekologik tadqiqotlarni amalga oshirish muammolari
 9. Tabiatdan oqilona foydalanishning global, regional va mahalliy ko'lamdagi muammolari
 10. Cho'llarni o'zlashtirishda va yer resurslarini muhofaza qilishda fitomeliorsiyani ro'li.
- Mustaqil ta'lim mavzulari talabalar tomonidan o'zlashtiriladi. Mavzular yuzasidan talabalar mustaqil ish, taqdimotlar tayyorlashi va himoya qilishi tavsiya etiladi.

3. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- umumiy tabiiy geografiyaga, regional tabiiy geografiya va landshaftshunoslikka taalluqli muammoli masalalari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- Inson - tabiat munosabatlari va uning oqibatlari, geografiyaning o'rta va oliy maktablarda o'qitilish muammolari, amaliy jihatlari va ahamiyatiga doir masalalarda xulosalarga kelishi va ulardan foydalana olishi;
- tabiiy geografiyaning ham nazariy ham amaliy muammolari, geografiyaning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirish, inson va tabiat o'zaro aloqadorligi muammolarini aniqlash, ushbu fan oldida turgan vazifalar, dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llariga doir ko'nikma va malakaga ega bo'lishi kerak.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

Talabalarni **Geografiyaning dolzarb muammolari** fanini chuqur o'zlashtirish uchun ilg'or zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish talab etiladi. Fanni chuqur o'zlashtirishda ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari, tarqatma materiallar, kartalar bilan bir qatorda yangi statistik ma'lumotlar, aholi va unga xos hamda sanoat, qishloq xo'jaligini joylashtirish jarayonlarni ko'rsatuvchi video filmlar, slaydlar ham katta yordam

beradi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda zaruriy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Geografiyaning dolzarb muammolari kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimining barcha belgilarini o'zida mujassam etmoq'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsatish kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama - qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradox va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits - so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostika.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining

birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarining nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.

Oliy ta'limda talabalar o'zlashtirishini baholash tizimini qiyosiy taqqoslash

JADVALI

Taklif etilayotgan O'zbekiston tizimi	Rossiya tizimi (MDU)*	Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS — European Credit Transfer System)	Amerika tizimi (A-F)	Britaniya tizimi (%)	Yaponiya tizimi (%)	Koreya tizimi (%)	O'zbekiston tizimi (%)
«5»	«5»	«A»	«A+»	70 — 10	80 — 100	90 — 100	90 — 100
			«A»	0			
			«A+»	65 — 69			
«4»	«4»	«B»	«B+»	60 — 64	70 — 79	80 — 89	70 — 89,9
			«B»	50 — 59			
			«B+»				
			«C»	45 — 49			
			«C+»				
«3»	«3»	«E»	«C»		60 — 69	70 — 79	60 — 69,9
			«C+»				
			«D+»	40 — 44			
			«D»				
			«D+»				
«2»	«2»	«FX»	«D»				
			«E»				
			«F»	0 — 39	0 — 59	0 — 59	0 — 59,9

“Geografiyaning dolzarb muammolari” fani bo'yicha talabalar bilimlari baholash va nazorat mezonlari.

№	Nazorat turlari	Nazorat muddatlari (har bir modul yakunidan nazorat o'tkaziladi)	Ajratilgan ballar	
			Eng yuqori ball	O'tis h bali
1	Joriy nazorat (fan 5 moduldan iborat)	1 modul	5	3
		2 modul	5	3
		3 modul	5	3
		4 modul	5	3
		5 modul	5	3
		6 modul	5	3
2	Oraliq nazorat	Oraliq nazorat Mustaqil ish	ON1-10 ON2-10	20